

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TEOLINGIVISTIKANING O'RGANILISH MASALASI

*Azimov Akbarjon Niyozidin o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi kunda tilshunoslikning yangi sohasi hisoblangan teolingivistikaning rivojlanish bosqichlari hamda uning o'zbek tilshunosligida o'rganilish masalasi, dolzarb muammolari haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: teolingivistika, diniy nutq, nutqiy janrlar, xutbalar, ma'ruzalar, duolar.

XXI asrda tilshunoslikning boshqa fan sohalari bilan munosabati negizida yangi-yangi sohalar vujudga kelishi hamda mazkur yangi sohalarga oid tadqiqotlar antroposentrik yo'nalishdagi eng dolzarb masalalarni qamrab olganligi bilan an'anaviy tadqiqot usullaridan keskin farq qila boshladi. Antroposentrik tilshunoslikning o'ziga xos xususiyati shundaki, u tadqiqotchi diqqatini bilish obyektidan subyektga qaratadi hamda inson tilning ichida va til inson tarkibida o'rganilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Tilning inson hayotida muhim o'rin tutishi shubhasiz. Til aloqa vositasi sifatida kommunikatsiyani ta'minlaydi, jamiyat a'zolarining bir-birlari bilan muloqot o'rnatishlari, o'z fikrlari, o'y-xayollarini ifodalashlariga ko'maklashadi. Tilning ijtimoiy tabiat, uning inson bilan chambarchas bog'liqligini tadqiq qilish tilshunoslikda antropotsentrik paradigma ostida birlashuvchi kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvopraktika kabi qator tilshunoslik tarmoqlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi. Tilning ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat a'zolari uchun xizmat qilishi hamda til markaziga inson omili qo'yilib antroposentrik nazariyaning rivojlanib borishi qatorida til va inson omilining o'zaro mustahkam aloqasidan iborat bo'lgan diniy muloqot jarayoning o'rganuvchi tilshunoslikning yangi yo'nalishi hisoblangan teolingivistikaning vujudga kelishiga sabab bo'lgan asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Teolingivistika termini inglizcha *theo* – din va *linguistics* – tilshunoslik so'zlarida olingen bo'lib, jamiyat a'zolari uchun xizmat qilayotgan tilning din bilan munosabatini o'rganish uchun xizmat qiladi. "Hozirgi kunda **til, madaniyat** va **din** o'rtasidagi yaqin munosabatlarning anglanishi, diniy-ma'naviy qadriyatlarning shakllanishi, madaniy va diniy identifikatsiya muammolarining dolzarbligi, xalqaro va konfessiyalararo diniy aloqalarning rivojlanishi yangi fanlararo lingvistik yo'nalish – teolingivistika, ya'ni til va din oralig'ida vujudga kelgan va tilda aks etgan diniy bilim tuzilmalarni ifodalovchi lisoniy birliklarni tadqiq qiluvchi fanning vujudga kelishini

taqozo etdi”.¹ Mazkur firklardan ko‘rinadiki, teolingivistika til va tafakkur, inson diniy faoliyati va uning lisoniy ifodasini tadqiq qiluvchi fan hisoblanib, diniy tafakkurning lisoniy ifodasi teolingivistikaning tadqiqot obyekti sanaladi. Bular tilshunoslikda olamning diniy konseptual manzarasi va olamning lisoniy ifodasi deb nomlanadi.

Teolingivistika haqida dastlabki qarashlar jahon miqiyosida belgialik tilshunos olim Jan-Per vann Noppen nomi bilan bog‘liqdir. Olim haqli ravishda “teolingivistikaning otasi” hisoblanadi. U 1981-yilda “Teolingivistika” deb nomlangan maqolalar to‘plamini nashr qilish bilan birga tilshunoslikning yana bir yangi yo‘nalishiga doir tadqiqotlarni boshlab bergen. Jan-Per vann Noppendan keyin nemis olimi Vagner, rus olimlaridan K.Timofeyev, Yu. Mixaylova, M.Goryushina, I.Matey kabi bir qancha olimlar teolingivistikaga oid tadqiqotlar olib borib, uning rivojlanishiga katta xissa qo‘shdilar.

O‘zbek tilshunosligida ham hozirgi davrda teolingivistikaga doir bir qator salmoqli hamda qimmatli tadqiqot ishlar amalga oshirilib kelinayotganligini alohida e’tirof etshimiz zarur. Mazkur tadqiqot ishlariga N.Uluqov, T. Yuldashev, M.Galiyeva, Sh.Sultonova, Sh.Amonturdiyeva, Sh.Yusupovalarning samarali mehnatlari natijasida yuzaga kelgan ilmiy yangiliklarini o‘zbek tilshunosligida teolingivistika sohasidagi katta yutuqlar deb hisoblaymiz.

Nosirjon Uloqov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek tilidagi diniy matnlar ekzotik leksikasining ilmiy-nazariy jihatlarini keng tahlil qilgan bo‘lsa², yana bir taniqli olim T.Yuldashevning nomzodlik dissertatsiyasida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlarnning islom farzlariga bag‘ishlangan asarlarida qo‘llanilgan shar’iy atamalar va ularning til xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlanadi.

M.Galiyevaning doktorlik dissertatsiyasida esa dunyoning lisoniy tasvirida diniy mifologik tasavvurning aks etishi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar atroflicha bayon etiladi hamda diniy-mifologik tasavvurning dunyoning lisoniy tasvirida o‘ziga xos ekani dalillanib, bu bo‘yicha qimmatli xulosalar bayon etiladi. Xususan, din va til munosabati, dunyo diniy tasvirining tilda aks etishi, teolingivistikani mustaqil fanlararo lingvistik yo‘nalish sifatida e’tirof etish mumkinligi asoslab beriladi. M.Galiyeva “teolingivistika” tilshunoslikning mustaqil bo‘limi sifatida quyidagi ikki yo‘nalish:
1) diniy tilning muqaddas matnlar va dindorlar nutqi materiali asosida o‘rganilishi;

¹ Галиева М. Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши. Филология фанлари доктори (DSc)дисс...автореф. – Фарғона, 2019.

² Улуков Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997.

2) dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkur aks etishining o‘ziga xosliklarini tadqiq etishni o‘z ichiga qamrab olishini ta’kidlaydi³. Tadqiqot teolingvistikaning yuqoridagi ikkinchi yo‘nalishi – dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkur aks etishining o‘ziga xosliklarini tadqiq etish masalalariga bag‘ishlanadi.

M.Umarxo‘jayev tomonidan “Diniy atamalar va iboralar” nomli izohli lug‘atining yaratilishi ham o‘zbek tilshunosligidagi katta yutuqlardan biri hisoblanadi. Mazkur lug‘atda muqaddas dinimizda faol va nofaol holatda qo‘llaniladigan diniy atamalar hamda iboralar keng tahlil qilingan. Lug‘at filologik lug‘at maqomida bo‘lganligi bois asosiy e’tibor atamalarning ma’nosи va ma’nolarini to‘g‘ri, soda, tushunarli, xolis ifodalashga qaratilgan.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki XXI asr o‘zbek tilshunosligida yangi yo‘nalish sifatida keng quloch yozayotgan teolingivistika o‘zi oldiga qo‘ygan maqsadlariga birin-ketinlik bilan erishib boryaotgan bo‘lsada, ammo hozirda mazkur yo‘nalishida o‘zining yechimini kutib turgan bir qancha muammolarning borligini ham e’tirof etishimiz zarur. Masalan hozirgi vaqtida teolingivistik tadqiqotlarda asosiy e’tibor diniy matnlarning leksik-semantik, sintaktik tuzilishini tahlil qilish, yoki diniy matnlarning ekzotik leksikasiga doir ishlari, diniy matnlarning pragmatik tahlili kabi yo‘nalishlarda olib borilganligini inobatga olsak, diniy nutqiy janrlar masalasi tadqiqot obyektidan chetda qolayotganligining guvohi bo‘lamiz. O‘zbek tilshunosligida diniy nutqiy janrlar masalasi, ularni tasniflash ishlari amalga oshirilmagan ishlardan hisoblanadi. Jahon tilshunosligida nutqiy akt va nutqiy janrlar masalasiga doir ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bir vaqtida o‘zbek tilshunosligida ham diniy nutqiy janrlarning lisoniy jihatdan tadqiq qilinishi zarur bo‘lgan ishlardan biri hisoblanadi bizningcha.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Улуков Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997.
- Галиева М. Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши. Филология фанлари доктори (DSc)дисс...автореф. – Фарғона, 2019.
- Умархўжа М. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: Faafur Fулом, 2016. – 220 б.
- Ismoilova N. Qur’oni karim tafsiridagi o‘xshatishlarning lingivistik xususiyatlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)diss.. avtoref. – Andijon, 2023

³ Галиева М. Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши. Филология фанлари доктори (DSc)дисс...автореф. – Фарғона, 2019.